

## KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI VA SAN'ATNING O'ZARO BOG'LQLIGI

**Gulbahor Yuldasheva**

FarDU, Axborot texnologiyalari kafedrasi dotsenti

**Yigitaliyev Jasurbek**

FarDU, TSMG yo'nalishi talabasi

### **Annotatsiya**

Maqolda o'qituvchi va talabalarning kompyuter va san'atning o'zaro bog'lqligi hozirgi kunda texnologiyani shiddat bilan rivojlanishi va innovatsion texnologiya va metodlardan foydalanish natijasida tasviriy san'atni o'qitish mobaynida erishiladigan samaradorlik haqidagi fikr-mulohazalar o'z aksini topadi.

**Kalit so'zlar:** Komyuter texnologiyasi, san'at, zamonaviy texnologiya, talaba, tasviriy san'at mashg'ulotlari, kompyuter vositalari

### **KIRISH**

San'at insonning moddiy va ma'naviy faoliyatidagi bilimi, tajribasi, mahorati va qobiliyatlarini namoyon etuvchi badiiy ijodiyot mahsulidir. San'at odamlarning estetik talablarini qondirish bilan birga, o'z taraqqiyotining turli davrlarida jamiyat a'zolarini ma'lum ruxda tarbiyalash, ularni aqliy va hissiy jihatdan rivojlantirish vositasi sifatida xizmat qilib kelgan. San'atda kompyuter texnologiyalarining o'rni juda ham katta.

Jamiyatning barcha sohalarida texnik jihozlar ko'payishi, yangilanishi (dizayn san'atining rivojlanishi) bilan ularning hayotda, turmushda va ishlab chiqarishda qo'llanish texnologiyasiga murojaat ham o'z mazmunini tobora kengaytirib bormoqda. Zamonaviy darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va materiallar tayyorlash, pedagog kadrlar hamda iqtidorli o'quvchilarni rag'batlantirish hammasi hozirgi kunda texnologiyaning rivojlanib borishi tufayli bo'lib kelmoqda.

Zamonaviy texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi.

### **ASOSIY QISM**

Zamonaviy texnologiya o'quv – tarbiya jarayoni uchun loyihalanadi va belgilangan maqsadni yechishga qaratiladi. Har bir jamiyat shaxsni shakllantirish maqsadini aniq belgilab beradi va shunga mos holda ma'lum bir tizim mavjud bo'ladi. Bu tizimga uzluksiz ravishda ijtimoiy buyurtma o'z ta'sirini o'tkazadi va ta'lim – tarbiya maqsadini umumiyl holda belgilab beradi. Maqsadi esa tizimning qolgan elementlarini o'z navbatida yangilash zaruratini keltirib chiqaradi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati chegarasi nihoyatda kengayib bormoqda, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o'zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta'lim jarayoning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Innovatsion texnologiyalar yordamida tasviriy san'at asarlarini keng va yaxlit idrok etish uchun imkon beradigan mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratiladi. Kompyuterlar orqali tasviriy san'at asarlarini tahlil qilish, muzeylar va galeriyalar bo'ylab virtual sayohatlar uyushtirishda har xil ovozli matnlar, musiqa, animatsion bezaklardan foydalanish bilan real hayotdagidek ko'rish imkoniyatiga erishiladi. Tasviriy san'at, dekorativ san'at, adabiyot, musiqa va umuman olganda, badiiy ijodkorlikda innovatsion texnologiyalarning o'zaro bog'liqligini amalda sinash talabalarning mashg'ulotlardagi faol ishtirokini jonlashtirishga xizmat qiladi.

Ta'lanning innovatsion texnologiyalar bilan o'zaro bog'liqligi talabalardagi bilim olish va san'atga qiziqishlarini oshiradi. Yangicha ta'lim usullari ta'sirida talabada keng fikrlash, yuqori izlanish, yangiliklar yaratish bilan uni asoslash, amaliyatga tadbiq etish vositasi sifatida munosbatda bo'lish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu asosida kasbiy faoliyatga tayyoragarlik hissi shakllanib, mustaqil ijodkorlik tajribasi ham ortadi. Yangi avlod multimedia texnologiyalari bilan faol shug'ullanganda talabalardagi san'at asarlarini idrok qilish tezroq shakllanadi.

Tasviriy san'at mashg'ulotlarida innovatsion texnologiyalarning faol qo'llanilishi natijasida zamonaviy talabaning assotsiativ fikrashi, tasavvur qilishi hamda badiiy tarzda his etish holati rivojlanadi. Yangi pedagogik texnologiya nazariyasi g'oyalaridan foydalanish asosida tashkil etilgan tasviriy san'at darslari yuqori malakali mutaxassisni tarbiyalashda yetakchi o'rinni egallaydi.

Ma'lumki, tasviriy san'at o'qitish usullarining evolyutsiyasi kashfiyotlar va ulkan jahon tajribasiga boydir. Masalan, misrliklar rasm chizishga har qanday yondashuvda o'zlarining kanonik tasvir qoidalarini o'rnatishga intilishgan, tayoq va qamchilar esa qat'iyatli va mashaqqatli ish uchun turtki bo'lib xizmat qilgan. Yunonlar tabiatni birinchi o'ringa qo'yishgan, kompozitsiyalarning matematik yechimi va barcha madaniy izlanishlar uchun asos, birinchi navbatda, inson va tabiat deb hisoblashgan. Yana shuni aytish kerakki, yunon o'qituvchilari geometriya va matematikadan ma'lumotsiz haqiqatni tasvirlashda to'liq tajribaga ega bo'lish mumkin emasligini o'rgatishgan. Bu kabilarning barchasi bugungi kundagi innovatsion jarayonlarda mustahkam o'rin egallab borayotgan innovatsion texnologiyalar, axborot kommunikatsiya vositalarining eng ommabop turlaridan bo'lgan kompyuter vositalari singarilarning ta'lindagi ishtirokiga poydevor bo'ldi.

### XULOSA VA MUNOZARA

Zamonaviy tadqiqot va ishlanmalar hozirda turli fanlarni o'qitishda faol foydalanilmoqda. San'atshunoslik fanlari nomzodi L.A.Molchanovaning ta'rifiga ko'ra «San'atdagi innovatsiya — bu tadqiqot, ishlanma, yangi yoki takomillashtirilgan badiiy yechim, uni san'atda qo'llash orqali jamoatchilik e'tirofiga intilish natijasi». Demak, bundan anglash mumkinki, san'at sohasining biror yo'nalishida yaratilgan asarlarda ta'linda joriy bo'lgan, natijakorligi bilan faollik darajasi oshgan biror innovatsiyaning aks ettirilishi va uning jamoaga e'tiboriga, tushib e'tirof etilishi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. S.T. Turg'unov, L.A. Maqsudova, M.A. Umaraliyeva, H.M. Tojiboyeva. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish texnologiyalari. T.: "Sanostandart". 2012 -98 bet.
2. G.I.Yuldasheva., Z.Oxunjonova (2023). Ta'lim va tarbiya jarayonlarida axborot texnologiyalarining o'rni. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2 (Issue 3), 984-986.
3. G.I.Yuldasheva., M.Otamirzayeva (2023). Ta'lim muhitida axborot texnologiyalarining o'rni. Международный научный журнал «Научный импульс». № 10(100), 118-121.
4. G.I.Yuldasheva., O.Muhammadova (2022). Tasviriy san'at darslarida axborot texnologiyalaridan foydalanish. International academic research journal. № 1(6), 51-56.
5. Г.И. Йулдашева., Г. Йулдашева (2019). Замонавий таълим тизимида Ахборот-коммуникация технологияларидан фойдаланишнинг ахамияти. Актуальные вызовы современной науки. Сборник научных трудов. Выпуск 4(36) 74-78.
6. G.I.Yuldasheva., D.Raxmonova (2023). Kompyuter grafikasining informatsion jamiyatdagi ahamiyati. Educational Research in Universal Sciences. Volume 2 (14) 760-763.
7. Yuldasheva, G., & Turdaliyeva, M. (2023). Photoshop dasturida ranglar gammasing imkoniyatlari. Scholar, 1(32), 158–163.
8. Йулдашева, Г., & Йўлдошева, М. (2022). Использования информационных технологий в организациях. Scientific progress, 3(3), 477-480.
9. Yuldasheva, G. (2023). Ta'limda axborot texnologiyalari. 1-qism. F., FarDU Nusxa ko'paytirish bo'limi.
10. Shermatova, H. M. (2022). Ta'limda axborot texnologiyalari. 2-qism. F., Classic.